

**DEVIANT XULQLI O'SMIRLAR HUQUQBUZARLIGINI BARTARAF
ETISHDA OLIMLAR HIKMATIDAN FOYDALANISH**

Mexriniso Qoyilova

Buxoro davlat pedagogika instituti biologiya kafedrasи dotsenti

Adiba Ashrapova

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smir yoshdagilarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishda ajdodlarimiz merosidan foydalanish yo'llari ko'rib o'tilgan.

Kalit so`zlar: o`smir, ajdod, jinoyatchilik, fidoyilik, ommaviy madaniyat.

Аннотация: В данной статье представлены пути использования наследия наших предков в формировании здорового образа жизни подростков.

Ключевые слова: подросток, предки, предки, преступность, преданность, популярная культура

Annotation: This article presents ways to use the heritage of our ancestors in creating a healthy lifestyle for teenagers.

Keywords: Teenager, ancestors, ancestors, crime, devotion, popular culture.

Ma'lumki farzand tarbiyasi, ayniqsa, uning huquq va burchlari haqida bolalarni xabardor qilish muhim ahamiyatga ega. Aksariyat hollarda o'smirlar huququzarligining kelib chiqishiga oilada ularning huquqlari va burchlari haqida tushuntirish ishlarining olib borilmaganligi sabab bo'lmoqda. Ma'naviy-huquqiy tarbiya samaradorligini oshirish uchun, birinchi navbatda, oila a'zolarining ma'naviy-huquqiy savodxonligi, milliy an'analar, huquqiy me'yorlarni yaxshi bilishlari muhim ahamiyatga ega. Bola oilada ota-onasi, bobo-buvilar, aka-ukalar, opa-singillar, mahallalar va ta'lim muassasalarida katta yoshdagilar, pedagoglar, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi natijasida aqliy-intellektual hamda ma'naviy-ruhiy jihatdan shakllanib, xalqning ijtimoiy tajribasini o'zlashtiradi. Oiladagi kattalar o'rtasidagi o'zaro ijobiy munosabatlar, mehr-shafqat, hamjihatlik, o'zaro hurmat, ishonch va mehribonlik, vatanparvarlik, fidoyilik barqaror bo'lsa, o'smir yoshdagilar mazkur muhitda sog'lom dunyoqarashga ega bo'ladilar.

Ko'pchilik oilalarning a'zolari, pedagoglar o'smirlar tarbiyasida ko'plab muammolarga duch kelmokdalar. Vujudga kelayotgan qiyinchiliklar ota-onalar va pedagoglarning o'smirlar shaxsiga oid pedagogik-psixologik, huquqiy bilimlar, "ommaviy madaniyat" tahdidlaridan yetarli darajada xabardor emasliklarini ko'rsatmoqda. O'smirlarning yosh xususiyatlari, qiziqish va intilishlarini ta'lim-tarbiya jarayonida hisobga olmayotgan pedagoglar va ota-onalar ularga nisbatan ba'zan talabchanlik, ba'zan beparvolik bilan yondashmoqdalar. Bu esa pedagoglar, ota-onalar

bilan o'smir yoshdagilar orasida turli ziddiyatlarni, tarang vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Buning natijasida o'smirlar orasida turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklar, asabiy taranglik vujudga kelmoqda. O'smir yoshdagi o'quvchilarda asosiy dunyoqarash, e'tiqod, ob'ektiv nuqtai nazar, o'zlikni anglash,

vaziyatlar, o'z-o'zi va atrofdagilarni baholash, voqelikka nisbatan ongi munosabat

shakllanadi. Bunda ta'lif mazmuni bilan bir qatorda kattalarning ular bilan bo'ladigan muloqoti, san'at, madaniyat, matbuot ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, oilada o'smir yoshdagilarning barkamol shaxs sifatida shakllanishida ruhiy xotirjamlik, shaxslararo sog'lom munosabat, o'zaro totuvlik, milliy an'analar va qadriyatlarga hurmat bilan yondashish, jamiyatda o'rnatilgan huquqiy me'yorlarga ongi munosabatda bo'lish ta'minlanishi lozim. O'smir yoshdagilarda sog'lom dunyoqarash va ma'naviy e'tiqodni shakllantirish uchun ajdodlarimiz merosidan foydalanish lozim. Buning uchun o'quv materiali va tarbiyaviy vositalar sifatida

maktabda va oilalarda ularga turli-tuman didaktik vositalarni taqdim etish kerak.

Ilmni qadrlash eng ulug' fazilat hisoblanadi. O'smir yoshdagi o'quvchilarda ushbu fazilatni shakllantirish orqali ular sodir qiladigan turli huquqbuzarliklarni oldini olish, ularda “ommaviy madaniyat” xurujlariga qarshi kurashchanlik, tanballik, boqimandalikni yengish sifatlarini shakllantirish mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning

“Oz-ozdan o'rganib dono bo'lur,
Qatra -qatra yig'ilib daryo bo'lur.
Yigitlikda yig' ilmning mag'zini,
Qarilik chog'i xarj qilg'il ani.”

hikmatlarini o'qituvchilar va ota-onalar bolalarga o'rgatib, uning mazmun-mohiyatini anglatsalar ularda ilm egallahsha bo'lgan muhabbat, qiziqish tarkib topadi. Ular bir umr mazkur yo'riqlarga amal qiladilar.

Yoki F. Bekonning:

Bilim - kuch, kuch esa bilimdadir,

Bilim va qudrat ikkalasi egizak, degan hikmatli o'gitini o'rgangan o'smir yoshdagi o'quvchilar inson qudratli bir shaxsga aylanishi, shaxs sifatida shakllanishi uchun bilim asosiy omil ekanligini tushuna boshlaydi va uni egallahsha intiladi.

Ajdodlarimiz ilm egallah va uning ahamiyati haqida juda ko'plab durdona fikrlarni yozib qoldirganlar. Biz ushbu durdonalarni darsliklar vositasida, dars va darsdan tashqari ta'lif-tarbiyaviy jarayonlarda o'smir yoshdagi o'quvchilar ongiga singdirishimiz lozim. Buning uchun o'qituvchilar bilan bir qatorda ota-onalar ham mazkur manbalardan xabardor bo'lishlari lozim.

A.Rudakiyning ta'biricha, bilim - barcha kulfatlarga qalqon hisoblanadi.

A.Firdavsiy esa

uni quyidagicha tavsiflaydi:

Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursankim, ilm bepoyon.

O'smir yoshdagi o'quvchilar huquqbuzarlikka yo'l qo'ymasliklari uchun, bиринчи navbatda,

o'zliklarini anglagan bo'lishlari lozim. Ularda o'zlikni anglash hissini tarkib toptirish uchun milliy qadriyatlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usiga ega bo'lishlari kerak. Bunga faqat ilm orqali erishish mumkinligi ular ongiga yetkaziladi. Bugungi kunda pedagogikada tarbiyaning ishontirish, tushuntirish, pand-nasihat qilish, ibrat-namuna ko'rsatish, yaxshi xatti-harakatlarni rag'batlantirish, tanbeh berish, ogohlantirish kabi samarali metodlari mavjud. Bugungi yoshlar ajdodlarimiz merosi, qadriyatlarimizdan bahra olib voyaga yetishlarini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

O'smir o'quvchilar huquqbuzarligini oldini olishning asosiy omili ularda sog'lom e'tiqodni shakllantirishdan iborat. Buning uchun o'quvchilarga ma'naviy qadriyatlarni muntazam taqdim etish lozim.

O'smir yoshdagi o'quvchilar ma'naviy faoliyatini tashkil etishda maktabdag'i tarbiyaviy jarayonlar muhim ahamiyatga ega.

Mutafakkir ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Bahouddin Naqbandiy, Firdavsiy, Bedil, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sa'diy, Rudaki, Nosir Xisrav, Abu Nasr Farobi, Abdulla Avloniy kabi Sharq allomalarining hikmatlari, o'gitlaridan tarbiyaviy jarayonlarda keng foydalanish o'smir yoshdagi o'quvchilar ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, farzand hayotda har bir narsadan a'lo, ustun, sevishga loyiq allohning ne'mati hisoblanadi. Shuning uchun ham o'smirlarni nazoratsiz qoldirish, o'z vaqtida to'g'ri tarbiya bermaslik ularda huquqbuzarlikning keng ko'lamda namoyon bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Huquqbuzarlik yo'liga kirgan bolalarga to'g'ri tarbiya berish, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish aqli raso, yuksak ma'naviyatli yoshlar sifatida kamol topishlariga ko'maklashish zarurligini mutafakkir shoir A.Navoiy ham o'z asarlarida qayta-qayta ta'kidlagan. Ayniqsa, xalq donishmandligi aks etgan hikoyatlarida mazkur yo'nalishdagi fikrlar asosli tarzda dalillangan. U odob-axloqni

o'ta qadrlagan:

Elga sharaf kelmadi jalxu nasab,

Lek sharaf keldi hayo qadab.

Bo'lmasada siz kishilar arjumand,

Past etarulxaylni charki baland.

Abu Ali Ibn Sino maqtanchoklik, manmanlik va o'zidagi bilimga ortiqcha baho berish kabi xususiyatlarni kishining axloqi past ekanligini ko'rsatuvchi belgilar sifatida baholagan. Uning fikricha, bolalarga faqat yaxshi xatti-harakatlarni o'rgatish lozim.

Buning natijasida bolada mustahkam xarakter shakllanadi, u o'zligini anglashga muvaffaq bo'ladi. Yoshlik davrida voyaga yetmaganning o'ziga xos xususiyatlari va xarakteristikalari, uning ong va dunyoqarashi shakllanadi. Biroq, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qiyinchiliklar, ichki mojarolar va atrofdagi ijtimoiy muhitda xulq-atvorni buzish bilan birga kechadigan murakkab jarayondir.

O'smirlar shaxsini shakllantirishda katta rol o'ynaydigan psixologik va ijtimoiy-psixologik omillar, uning umumiy aqliy va shaxsiy rivojlanishida ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan, ma'lum bir yoshga xos odatda, deviant harakatlarning sabablari bo'lishi mumkin.

O'smirlar deviant harakatlariga yordam beruvchi ichki psixologik omillar quyidagilar:

- salbiy istak yoki niyat;
- ijtimoiy manfaatlar;
- motivlar, munosabatlar, e'tiqodlar;
- da'volar darajasi yuqori yoki past darajadaligi;
- ozodlikka chiqish;
- taqlid qilish, o'zini o'zi taqiqlash, guruhlash;
- norozilikning odatdag'i reaktsiyalari;
- g'alati hobbilar va ehtiroslar;
- nevroz kasalliklar), belgilarning kuchayishi;
- psixopatik shaxsiylik xususiyatlari.

Voyaga yetmaganlarning deviant harakati shakllanishini belgilaydigan tashqi ijtimoiy-psixologik omillar quyidagilar:

- kattalar va tengdoshlar (oilada, mактабда, istiqomat joyida) bilan o'zaro aloqalar;
- ko'cha va boshqa norasmiy guruhlarda voyaga yetmaganlarning ishtiroki va ushbu guruh rahbarlarining bosimi;
- jinoyatlar va jinoyatlar sodir etishga (ilgari sudlanganlarga) asos soluvchi voyaga yetmaganlarning kattalar bilan munosabatlari;
- voyaga yetmaganlarni spirthli ichimliklar va giyohvand moddalarni muntazam iste'mol qilishga jalg qiladigan shaxslar bilan munosabatlari;
- voyaga yetmaganlarning (oilada) va guruhdagi (maktabda) ta'lim olishdagi kamchiliklari;
- voyaga yetmaganlarning tipik yoshi va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ota-onalar va o'qituvchilarning bilmasliklari.

Bu omillar deviant harakatlar muammolari, jinoyatchilik psixologiyasi va voyaga yetmaganlarning o'ziga xosliklari haqidagi tadqiqotlarda aks etadi. O'smirlar orasida jinoyatchilikning oldini olish profilaktik, tarbiyaviy va davolash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, ta'lim va tarbiya sohasidagi amaldagi me'yoriy-huquqiy baza

asosida tashkiliy va ilmiy-uslubiy masalalarni hal etishni talab qiladi. Shunday qilib, o'smirlar orasida deviant harakatlarning oldini olish bo'yicha ijtimoiy-psixologik xizmatlarning samaradorligi ko'p jihatdan ishlayotgan barcha pedagog xodimlarning tayyorgarligi va malaka darajasiga bog'liq. Bunda asosiy e'tibor, shaxsga nisbatan gumanistik va shaxsiy yondashuv bo'lib, ayniqsa deviant harakatlarga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarga qaratilishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Койилова, М. Д., & Кароматов, И. Д. (2017). Фасоль как лечебное средство (обзор литературы). Биология и интегративная медицина, (8), 114-133.
2. DJURAEVNA, K. M. (2023). Methodology of Inclusion of Healthy Lifestyle Skills in Adolescents with Deviant Behavior. Novateur Publications, (13), 1-71.
3. Koilova, M. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES IN THE TRAINING OF SENIOR NURSES THROUGH THE STRUCTURAL ANALYSIS OF PROFESSIONAL COMPETENCE AND PROFESSIONAL MOBILITY. Евразийский журнал академических исследований, 3(9), 137-141.
4. Койилова, М. Д. (2020). ИЗМЕНЕНИЕ КУЛЬТУРЫ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА К МОДЕЛИ СОВРЕМЕННОЙ СЕМЬИ. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 8, pp. 164-167). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
5. Койилова, М. Д. (2018). Синяк обыкновенный, итальянский. Биология и интегративная медицина, (9), 117-121.
- 6 QURBONOVA, G., & KOYILOVA, M. DEVIANT XULQLI O'SMIRLARNI MEHNAT VOSITASIDA TARBIYALASH. Pedagogik mahorat, 102.
7. Qoyilova, M. (2022). Xulqi og 'ishgan o 'smirlarni mehnat vositasida tarbiyalash. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 2(2).
- 8.Mekhriniso Qoyilova. The need for professional competence development in the training of senior nurses. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
9. Khoyilova Mekhriniso Djuraevna MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021 Copyright (c) 2021 METHODS OF FORMATION OF POSITIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS.
- 10.Qoilova , M. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES IN THE TRAINING OF SENIOR NURSES THROUGH THE STRUCTURAL ANALYSIS OF PROFESSIONAL COMPETENCE AND PROFESSIONAL MOBILITY. Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 3(9), 137–141. izvlecheno ot <https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/20623> DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8371586>